



A LINGUOSPIRITUAL ANALYSIS OF UZBEK PROVERBS CONTAINING THE “LANGUAGE” COMPONENT

Nurbek Djumanazarovich Juraev

Senior Teacher, Department of Linguistics

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguospiritual, semantic, language, proverb, folk, national, meaningful word.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: In modern linguistics, the influence of Uzbek proverbs, passed down from century to century, on human spirituality is recognized as the path of language to human perfection. They contain dozens of semantic aspects of speech, all examples of artistic means, poetic movements. Over the years, it has been systematically used in live speech and interpersonal communication, as well as in artistic, historical and scientific works. In the given article, the author studies the linguistic and spiritual specificity of proverbs with the "language" component in the Uzbek language and provides relevant examples.

O‘ZBEK TILIDAGI “TIL” KOMPONENTLI MAQOLLARNING LINGVOMA’NAVIY TAHLILI

Nurbek Djumanazarovich Jurayev

Lingvistika kafedrası katta o‘qituvchisi

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: lingvoma’naviyat, semantik, til, maqol, xalq, milliy, ma’noli so‘z.

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda asrdan asrga o‘tib kelayotgan o‘zbek maqollarining inson ma’naviyatiga ta’siri tilning insonni kamolotga eltuvchi yo‘l sifatida e’tirof etilgan. Ularda so‘zning o‘nlab semantik jihatlar, badiiy vositalarning barcha namunalari, she’riy harakatlari mavjud. Yillar davomida u jonli nutq va shaxslararo muloqotda, shuningdek, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda muntazam ravishda

qo'llanilgan. Keltirilgan maqolada muallif tomonidan o'zbek tilidagi "til" komponentli maqollarning lingvoma'naviy o'ziga xosligi o'rganilgan va tegishli misollar keltirilgan.

ЛИНГВОДУХОВНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ С КОМПОНЕНТОМ «ЯЗЫК» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Нурбек Джуманазарович Жураев

Старший преподаватель кафедры Лингвистики

Кариинского государственного университета

Кариин, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингводуховный, семантический, язык, пословица, народный, национальный, значащее слово.

Аннотация: В современной лингвистике влияние узбекских пословиц, передаваемых из века в век, на духовность человека осознаётся как путь языка к совершенству. Они содержат десятки семантических аспектов речи, все примеры художественных средств, поэтических приёмов. На протяжении многих лет они систематически используются в живой речи и межличностном общении, а также в художественных, исторических и научных трудах. В данной статье автор исследует лингвистическую и духовную специфику пословиц с компонентом «язык» в узбекском языке и приводит соответствующие примеры.

Kirish. Xalqimizda qadriyatlarning, an'analarning o'rni beqiyos, chunki aslar davomida iymon, etiqod, ma'naviyat hamda ma'rifat degan tushunchalar shakllanib borgan. O'zbek xalq maqollariga muayyan tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu xususda V.P. Anikinining quyidagi fikrini qo'llab-quvvatlash lozim: "Aforistik folklorning milliy o'ziga xosligi, eng avvalo, har bir xalqqa xos bo'lgan voqelikka alohida qarashda, olamni tarixan shakllangan o'ziga xos idrok etishda, ijtimoiy va badiiy umumlashmalar xarakterida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar maqollarni bir tildan boshqa tilga aniq tarjima qilishni juda qiyinlashtiradi, chunki tasvirni loyihalash, uzatish va amalga oshirishda milliy o'ziga xoslik boshqa tilga o'tkazish qiyin bo'lgan semantik va uslubiy, nutqiy bo'yoqlarda ifodalanadi" (Национальное своеобразие афористического фольклора прежде всего выражается в присущем каждому народу особом взгляде на действительность, в особом исторически складывавшемся восприятии мира, в характере социальных и поэтических обобщений. Эти особенности весьма затрудняют

точный перевод пословиц с одного языка на другой, так как национальная специфика выражается в трудных для передачи на другой язык семантических и стилистико-речевых оттенках при оформлении, передаче и воплощении образа).

O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987–1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan “O'zbek xalq maqollari” o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning “Ma'nolar maxzani” to'plami da 20 mingga yaqin maqol etimologiyasi, har xil variantlari bilan alifbo tartibida joylashtirilgan.

P.U.Bakirov O'zbek xalq maqollarining mavzuviy guruhlarini haqida quyidagicha yozadi: “O'zbek xalq maqollari” to'plamida 20 ta mavzuviy guruh ajratiladi: 1) vatan va vatanparvarlik; 2) mehnat va mehnatsevarlik; 3) jamoalilik; 4) do'stlik va kelishmovchilik; 5) ilm va san'at; 6) donishmandlik va aql; 7) mardlik va insoniylik; 8) botirlik va qo'rqqoqlik; 9) ogohlik va hushyorlik; 10) oila va qarindoshlik; 11) muhabbat va sadoqat; 12) kattalarga hurmat va izzat; 13) tarbiyaga xushmuomalalik; 14) qadriyat; 15) mehmon va mehmondo'stlik; 16) yaxshi so'z va mehribonlik; 17) haqiqat va yolg'on; 18) tanballik va qobiliyatsizlik; 19) iqtisod va tejamkorlik; 20) tiyilish va sabr-toqat; 21) tozalik va tejamkorlik; 22) ishonch va umidsizlik; 23) maqtanchoqlik va manmanlik; 24) ochko'zlik; 25) hayvonlar; 26) ko'rsatmalar; 27) allegorik maqollar; 28) tarbiya va tarbiyachi; 29) qashshoqlik va muhtojlik; 30) tarixiy (o'tmish haqidagi) maqollar”.

Turli davr, turli yillarda to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar asosan bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi va mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilidagi maqollarga to'xtaladigan bo'lsak, asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollarimizning ma'no jihatdan naqadar yetukligiga yana bir bora amin bo'lamiz. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalari. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

O'zbek tilidagi Til mavzuviy guruhiga kiruvchi maqollarda ham o'zbek lingvoma'naviyatining aks etganligini kuzatish mumkin.

Tilga e'tibor – elga e'tibor.

Ushbu maqolda o'zbek xalqining tilga, nutqqa, so'zlashuv va muomala odobiga e'tiborli ekanligi namoyon bo'ladi.

Til – aql bezagi.

Til – aql tarozusi.

Til – aql o'lchovi.

Ushbu maqollarda tilning aql tarozusi va bezagi ekanligi, insonning ichki olami va ma'naviyatlilik darajasi uning tilidagi so'zlari, nutqidagi odobi bilan baholanishi ifoda etilgan.

Ilon zahri – tishida,

Yomon zahri – tilida.

Ma'lumki, xalqimizda shirinso'zlik ulug'lanadi, dilozorlik qoralanadi. Ushbu maqol o'zbek xalqining shu e'tiqodidan kelib chiqqan. Yomon so'zlar so'zlaydigan insonlarni xalqimiz zaharli ilonga o'xshatib, "zahri tilida" deb tasvirlaydi.

Achchiq til – zahri ilon,

Chuchuk tilga jon qurbon.

Tilning ham achchig'i, ham chuchugi bo'lishi, tili bilan ozor beradigan odamga ilon zahari ham kam, tili shirin odamga esa jon qurbon qilish lozimligi yuqoridagi maqolda mohirona tasvirlangan.

Yomon til boshga balo keltirar,

Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

Tili yomon odamning boshiga musibat tildan kelishi, tilidan faqat yaxshi so'zlar tushmaydigan insonga esa tili yaxshilik, mol-u dunyo yor bo'lishi nasihat qilinadi. Bu bilan o'zbek xalq maqolida insonni iqtisodiy ahvoli ham uning tiliga bog'liq ekanligi ta'kidlanganligini ko'rish mumkin.

Tilning suyagi yo'q.

Xalqda ushbu maqolning "Til – besuyak, gapiraveradi" varianti ham mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, inson tiliga erk beravermasligi kerak. Yuqoridagi maqol kishini mulohazali bo'lishga o'rgatadi.

Qizli uyning tili biyron,

Sovchilarning tili tiyron.

O'zbek xalqida oilada qizning bo'yi yetgandan so'ng xonadon eshigidan sovchilarning keti uzilmay qoladi. Shunda xonadon egalari sovchilarga o'zining barcha talablarini bemalol qo'yishadi. Sovchilar esa maqsadlariga erishish uchun hammasiga rozi bo'lishadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan sovchilar vositasida ikki yoshni uyli qilish an'anasi ushbu maqolda o'z ifodasini topgan.

Yomon til yo jonga urar, yo iymonga.

O'zbek xalqigagina xos bo'lgan iymon, e'tiqod so'zlarining xalqimiz hayotida qanchalar muhim o'rin egallashi yuqoridagi maqolda o'z ifodasini topgan.

Muxtasar qilib aytiladigan bo'lsa, o'zbek xalq maqollari orasida til mavzusi alohida guruhni tashkil etib, asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollar o'zbek xalqining lingvoma'naviy xususiyatlarini namoyon etadi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham

badiiyat hodisalaridir. Ularda bir soʻzning oʻnlab maʼno qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik koʻchmlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Аникин В.П. Пословицы и поговорки народов Востока. – М., 1961. – С. 12.
2. Ўзбек халқ мақоллари / Тузувчилар: Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 512 б.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 448 б.
4. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 298 с. – С. 58-59.